

УДК. 372.8+372.863

QOVOQDOSH SABZAVOT EKINI PATISSONNING KIMYOVIY TARKIBI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI

Kenjayeva To'lg'onoy Rahmonovna

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti, assistent

Tel.99-572-91-33 kenjayeva67@mail.ru

Sanoqulova Mashhura Bayoz qizi

3-bosqich talabasi

sanaqulovamashhura9@gmail.com

Tel.93-969-94-39

Annotatsiya. Qovoqdosh ekinlar ta'm sifati yuqori bo'lganligidan qadimda O'rta Osiyo xalqlarining eng muhim va sevimli mahsuloti bo'lib kelgan. Insonlarning sog'lom turmush tarzini yaratishda qovoqdosh o'simliklarning o'ziga xos o'rni bo'lib, u shifobaxshligi, vitaminlarga boyligi bilan qadimdan ma'lum. Patisson yetishtirish uchun sho'r bosmagan ser hosil yerlar zarur. Bir yilda ikki marta ekiladi. Kulcha qovoq uchun mo'ljallangan yerni kuzda yumshatib kuzgi shudgor qilinadi. Yerga ekishdan oldin ishlov berish ekish muddatiga qarab belgilanadi. Bahorgi ekish paytida u erta bahorgi baronalash, chizellash yoki baronalash bilan bir paytdag'darmasdan haydaladi. Patissonga qulay sharoit bo'lsa jadal o'sadi, 4-8 barg chiqarganda yon novdalar paydo bo'ladi. Eng qulay harorat patisson uchun 25-30gradus. Bunday haroratda nihol 4-6 kundan keyin o'sib chiqadi. O'simlikning normal o'sishi uchun zarur harorat 25-27 gradus bo'lishi kerak. Harorat 15 gradusdan past bo'lganda rivojlanishi sekinlashadi, 8-10 gradusda kasallanadi, 3-4 gradusda esa 3-4 kundan keyin halok bo'ladi.

Abstract. Due to the high quality of taste, pumpkin crops have long been the most important and favorite products of the peoples of Central Asia. Pumpkin plants have a special role in creating a healthy lifestyle for people, and it has been known since ancient times for its medicinal properties and rich in vitamins. To grow Patisson, you need fertile land that is not flooded with salt. It is sown twice a year. The land intended for pumpkins is softened in the fall and plowed in the fall. Pre-planting treatment is determined depending on the planting period. During spring planting, it is plowed without delay with early spring harrowing, chipping or harrowing. If there are favorable conditions for patison, it grows rapidly, side branches appear when it produces 4-8 leaves. The most comfortable temperature for patisson is 25-30 degrees. At this temperature, the sprout will grow after 4-6 days. The necessary temperature for normal plant growth should be 25-27 degrees. When the temperature is below 15 degrees, the development slows down, at 8-10 degrees it becomes sick, and at 3-4 degrees it dies after 3-4 days.

Kalit so'zlar. Patisson,. Ekish sxemasi, Agrotexnikasi. Shifobaxshligi. Maqbul harorat. Tuproq sharoiti.

Keywords. Pattison, Planting scheme, Agrotechnics. Healing. Acceptable temperature. Soil conditions.

Patisson mayda mevali sershox o'simlik hisoblanadi. Patisson o'simligi juda issiqtalab o'simlikdir. Uni aprel oyida qator va tup oralig'i 70x70 yoki 80x80 sm sxemada ekish mumkin. O'suv davrida qator oralari yumshatilib, oziqlantiriladi va sug'oriladi. Patisson suvga



1-rasm.Patisson mevalari

ham juda talabchandir. Mevasi tarkibida 6,0—6,5% quruq modda, 2,5-2,9% qand va vitaminlar mavjud. Urug'ida moy va santanin bor. Patisson o'simligi qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik sabzavot ekini hisoblanadi. Poliz ekinlari mevasidan iste'molda yangiligicha va sanoatda qayta ishlash uchun xom-ashyo sifatida, chorvachilikda shirali ozuqa sifatida foydalaniladi.

Tibbiyotda davolashdagi ahamiyati ham katta. Patisson mevasi eti tarkibida oson hazm bo'ladigan qand bo'lib, buyrak, jigar va yurak-qon-tomir kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Patissonning eti yallig'lanishga qarshi vosita sifatida, urug'ini qaynatmasi gijjani haydab chiqaruvchi vosita sifatida ishlatilishi ahamiyatlidir. Patisson mevasi tarkibida oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar va boshqa minerallar mavjud bo'lib, yog'lar-0.1 g, uglevodlar 4.1 g, organik kislotalar 0.1g, vitamin B4-7.3 mg, vitamin B9- 30 mg, vitamin S- 23 mg, kal'siy- 13 mg, kremniy- 29 mg, natriy- 14 mg, fosfor-12 mg, mono va disaxaridlar- 4.1 mg, kobal't- 1 mg, bor- 19.7 mg, 6.4 mg, to'yingan yog' kislotalar- 0.041 mg. Patisson vitaminlar va minerallarga boy, S vitamin-25.6 %, kremniy-96.7 %. Vitamin C oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida, immunitet tizimining ishlashida ishtirok etadi, temir yetishmasligini oldini oladi.



2-rasm. Patisson Arbuzinka

Patisson ichak faoliyatini normallashtiradi, xolisterinni so'rilishini to'xtatadi. Patisson uy sharoitida yoki plyonka ostida o'sayotganda 20-30 kun to'lgandan keyin 2 yoki 3 ta haqiqiy barg chiqaradi. Ochiq dalaga mart oyining oxiri va aprelboshlarida o'tqaziladi. O'simlik ekiladigan tuproq yaxshi himoyalangan bo'lishi kerak. Agar tuproq sho'r bo'lsa, o'simlik juda yomon o'sadi. Buning uchun tuproqqa kerakli o'g'itlar aralashtirilib, neytral muhit hosil qilish kerak. Agar bu dalaga qovoq, patisson, bodring, kabachki ekilgan bo'lsa bu joyga patisson

ekish mumkin emas.

Yerni ekishga kuzda tayyorlagan ma'qul. Agar tuproq torfli bo'lsa, unga 20-25 sm chuqurlikda bir choy qoshiq kaliy sul'fat, 2 kg organik o'g'it, 2 osh qoshiq yog'och qipig'i va bir choy qoshiq superfosfat qo'shish kerak. Bu 1 metr kvadrat metrga to'g'ri keladi, agar tuproq qumoq bo'lsa kuzda uni lopatka bilan kavlash kerak va unga 2-3 kg torf, yog'och qipig'i, superfosfat solish kerak. Bu 1 kv metrga to'g'ri keladi. Agar tuproq qora bo'lsa unga 1 osh qoshiq superfosfat poroshogi, 2 kg yog'och qipig'i, daraxt butalaridan tayyorlangan tabiiy mineral o'g'it zol solish kerak. Harorat 14-15 gradusga yetganda mart oyining oxirlarida dala begona o'tlardan tayyorlanadi, patissonni ekish asosan tuproq haroratiga bog'liq.

Teshiklarni to'g'ri tayyorlash, tuproqni isitilishiga yordam beradi. Qovoqdoshlar tarkibida achchiq moddalar paydo bo'lishi suv rejimining buzilishi tufaylidir. Tuproqning uzoq vaqt qurg'oqchilikda qolishi ko'proq sabab boladi. Bunda azotli, fosforli o'g'itlar singib ketmay qotib qoladi. Qovoqdosh ekinlarni sug'orish muntazam ravishda olib borilishi kerak. Barglarini yoymasdan sug'orish kerak. Issiq ob-havo sharoitida o'simliklarni 2-3 marta sug'orish zarur bo'ladi. O'simliklarda turli sabablar – kasallik qo'zg'atuvchilar hamda noqulay tashqi sharoit ta'sirida turli kasalliklar kelib chiqadi. Bular organism funksiyasi (fotosintez, nafas olish, o'stiruvchi moddalar harakati) ning buzilishiga, o'simlikning butunlay nobud bo'lishi yoki ba'zi organlarning zararlanishga olib keladi. O'simliklar kasalliklari hosilni kamaytirib, sifatni buzadi. Masalan: antraknoz, fusarioz va boshqa kasallik

qo'zg'atuvchilarining tuproqda uzoq yashashini hisobga olgan holda qovoqdosh ekinlarini dastlabki joyiga eng kamida 4-5 yildan keyin ekishga ruxsat etiladi. Almashlab ekishda dala maydonlarini shunday taqsimlash kerakki, joriy yildagi qovoqdosh ekinlar avvalgi yilgi maydon bilan yonma-yon joylashib qolmasligi kerak.

Urug'lar faqatgina sog'lom maydonlar va zararlanmagan mevalardan olinadi. Urug'larning mog'orlashi, maysalarning yotib qolishi, fuzarioz ildiz chirishi, fuzarioz so'lish, antraknoz, bakterioz, va boshqa kasalliklarga qarshi urug'lar tegishli preparatlar bilan dorilanadi. Namlangan (1 t urug'ga 10 litr suv) urug'larni mazkur preparat bilan dorilash ekishdan 2-3 oy oldin o'tkaziladi. Himoyalangan joylarda issiqxona ichini dezinfeksiyalash, tuproq, idishlar va asbob-anjomlarni zararsizlantirish, hosil yig'ib olingandan keyin o'simlik qoldiqlarini yo'qotish, karantin tadbirlariga amal qilish zaruriy tadbirlar hisoblanadi. Ko'chatlarni ozuqali kubiklar yoki torf-chirindili tuvakchalarda yetishtirish maqsadga muvofiqroqdir. Issiqxonalarda quyidagicha harorat ushlanadi: quyoshli kunlarda meva-tugishgacha va meva-tugish davrida mos holda 22-24 va 24-26 C, kechasi -17-18 gradus va 18-20 C. Havoning nisbiy namligi meva-tugishgacha 75-80 % va meva tugish davrida 80-85% bo'lishi lozim. Tuproq harorati havo haroratidan 1-2 C past bo'lishi tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bo'riyev X.Ch., Zuyev V.I., Qodirxo'jaev O.G., Muxamedov M.M. "Ochiq yerlarda sabzavot ekinlarini yetishtirishning progressiv texnologiyalari" (darslik) O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN. Toshkent 2002 yil
2. Bo'riyev X.Ch., Zuyev B.I. Majidov S.M., O'zbekistonda kartoshka, sabzavot va polizchilikning holati, muammolari, istiqbollari va rivojlanishi M.S.B.H R.U.Z., T-2003
3. Zuyev V.I., Umarov A.A., Qodirxo'jaev O.K.- "Sabzavot ekinlari va kartoshka yetishtirishning intensiv texnologiyasi" (darslik). Toshkent, "Mehnat", 1987 y.
4. Leyunov I.I., Bakulev L.S. va boshqalar. "Ochiq yerga sabzavot yetishtirishning istiqbolli texnologiyalarining yagona tizimi" (tavsiya). Moskva "Agropromizdat", 1989 yil
5. Esanov I., Toshxo'jaeva. "Kartoshka yetishtirishning intensiv texnologiyasi". Toshkent "Mehnat", 1989 yil.
6. 2000-2005 yillar uchun asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirish bo'yicha texnologik xaritalar namunalari. II qism". O'zbek. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi. Toshkent, 2000 yil.
7. Durxo'jaev Sh., Islomov S., Kenjaeva T., Tojiboyev A. Patissonning yuqori mahsuldor navlari va duragaylarini tanlash, ularni ekish uchun eng qulay muddatlarni aniqlash // E3S Web of Conferences 258, 04024 (2021). – 1-8-betlar (UESF-2021, <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202125804024>).
8. R. Kulmatov, A. Taylakov, S. Khasanov, Environmental Science and Pollution Research, 28(10), 12245-12255 (2021)
9. Y. Peng, F. Li, N. Xu, R. Kulmatov, K. Gao, G. Wang, Y. Zhang, Y. Qiao, Y. Li, H. Yang, S. Hao, Q. Li, S. Khasanov, Chinese Journal of Eco-Agriculture, 29(2), 312-324 (2021)
10. T. Wehner, R. Naegele, J. Myers, P. Narinder, K. Crosby, Cucurbits, 32 (2020)